



## TIL MILLAT VA VATAN TIMSOLI

Ochilova Xolida Axadjonovna

Sharipova Sayyora Haydarovna

Buxoro Davlat Pedagogika instituti

Axborot resurs markazi kutubxonachilari

**Annotatsiya:** maqolada o`zbek tilining ijtimoiy-madaniy ahamiyati, tilimizning betakror jihatlari, o`ziga xosligi hamda tilga muhabbat ifodasi bayon etilgan.

**Kalit soʻzlar:** o`zbek tili, davlat, taraqqiyot, xalq ogʻzaki ijodi, millat.

Til – milliy qadriyatlarni birlashtirib, tutashtirib, namoyon etib turuvchi eng mustahkam zanjir, boy va cheksiz maʼnaviy xazina. Til insonning birlamchi ehtiyoji, anglash, bilish, soʻzlash, aloqa-munosabat vositasi, mansub-xoslik omili boʻlgani bois hamisha jamiyat ravnaqining asosiy mezonlaridan boʻlib kelgan. Jumladan, oʻzbek tili oʻzbek millatining uzoq tarixiy ildizlariga, oʻz siyosiy-huquqiy asoslariga ega muqaddas qadriyati, ulkan maʼnaviy yutugʻidir. Bugungi taraqqiyotiga qadar shonli va sharaflı yoʻllarni bosib, keskin va shiddatli toʻfonlarni engib kelayotgan milliy tilimiz davlat maqomida yanada ulugʻvor va ustuvorligini namoyon qilmoqda.

Xalq ogʻzaki ijodining nodir namunalaridan boshlab, qadimiy bitiktoshlardagi yodnomalar, Mahmud Zamaxshariy, Mahmud Qoshgʻariy, Ahmad Yassaviy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy, Furqat, Uvaysiy, Nodira, Behbudiy, Fitrat, Qodiriy, Choʻlpon, Usmon Nosir kabi ijodkor-mutafakkirlar merosi bu boradagi salmoqli manbalar sirasiga kiradi. Shubilan bir qatorda, keyingi avlod vakillari, XX-XXI asr maʼrifati, adabiyoti namoyondalari, tilshunos, adabiyotshunos allomalari ham oʻz badiiy, ijodiy, ilmiy faoliyati bilan oʻzbek tilining adabiy, maʼnaviy-maʼrifiy boyishi va yuksalishiga, tobora sayqallanib kamol topishiga benazir hissa qoʻshib kelmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasining 2020 yil 10 aprelda qabul qilingan “Oʻzbek tili bayrami kunini belgilash toʻgʻrisida”gi Qonuniga muvofiq 21 oktyabr sanasi Oʻzbek tili bayrami kuni etib belgilandi. Bugungi kunda mamlakatimiz «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» bosh gʻoyasi ostida rivojlanishning yangi bosqichi – Uchinchi Renessansga



tamal toshini qo‘yishda buyuk marralarga erishmoqda. Mana shu yo‘lda, ya’ni davlatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida albatta, davlat tilining o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi.

Til to‘g‘risida gap ketganda “Ona” so‘zining qo‘llanilishi ham bejiz emas, albatta. Negaki, inson uchun ona-Vatani, kindik qoni tomgan tuprog‘i, ota-onasi va oilasi qanchalik muqaddas bo‘lsa, ona tili ham shunchalik qadrlidir. Inson dunyoga kelar ekan, olamni ona tili orqali anglay biladi. Til orqali boshqalar bilan fikrlashadi, o‘z dunyoqarashini yuzaga chiqaradi, ta’lim oladi, rivojlanadi. So‘z ustalari esa, ushbu ona tili orqali ko‘ngil naqshlarini xat-sozga soladi, kuylaydi.

So‘nggi yillarda muhtaram Prezidentimiz SH.Mirziyoev tomonidan mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish, davlat tilida ish olib borishni tashkillashtirish, shuningdek, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga so‘zsiz amal qilinishiga erishish borasida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

Xususan, Prezidentimiz tomonidan 2019 yilning 21 oktyabr kuni qabul qilingan “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga asosan Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkillashtirilib, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi barcha mahalliy davlat boshqaruv organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga amal qilinishini ta’minlash bo‘yicha maslahatchi lavozimlari joriy qilindi.

Biz ajdodlarimizning merosini, uzoq va yaqin o‘tmish hayot lavhalarini, davlatchiligimizning tarixiy asoslarini, milliy qadriyat va an‘analarimizni ana shu milliy til vositasidagina yanada chuqurroq anglaymiz, o‘zlashtiramiz, mustahkamlaymiz, kelajak avlodga yetkazilishini ta’minlab bera olamiz. Shu boisdan ham o‘zbek tili o‘zbek xalqining “milliy o‘zlik va mustaqil davlatchilik timsoli, buyuk qadriyat” sifatida yuksak maqomga ega.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, ilmiy-texnik, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy- mafkuraviy o‘zgarish va yuksalishlar, dunyoviy hamkorlik va aloqalar bevosita tilga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi: adabiy til lug‘at tarkibida, ma’no qatlamlarida eskirish, yangilanish jarayonlari Masalan, ayni paytda mahalliy OAVlarda, jumladan matbuot, tele-radio kanallar va ijtimoiy



tarmoqlar orqali Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qoraqalpog'iston bo'limi tomonidan tayyorlangan milliy tilimizni ulug'lovchi materiallar keng e'lon qilinmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz qaysi joyda, qanaqa mavzuda ma'ruza qilmasin, ona-Vatanimiz kelajagi bo'lgan yoshlar masalasini ilgari suradi va yosh avlod qalbida ona tilimizga hurmat hissini bolalikdan joylash maqsadida ta'limning barcha bosqichlarida tilimizni zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida chuqur o'rgatishga alohida e'tibor qaratib kelmoqda.

Keyingi yillarda bu borada ona tilimizdagi terminlarning tartibga kelishi, lug'atlarni chop etish, ona tilimiz alifbosi va imlosini qayta ko'rib chiqish, uni barqarorlashtirish kabi ishlar amalga oshirildi.

Chindan ham ajdodlardan me'ros ona tilimiz ko'p asrlarni, qancha ziddiyatli davrlarni boshidan o'tkazib, sof holida bizgacha etib keldi.

“Ona tilimiz – milliy ma'naviyatimizning bitmas-tuganmas bulog'idir. SHunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom ko'rsatish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas insoniylik burchimizdir!”, degan edi muhtaram Prezidentimiz o'z nutqida.

Til – millatning ma'naviy boyligidir. Til - davlat timsoli, mulki. Tilni asrash, rivojlantirish – millatning yuksalishi demak. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan. Shu tariqa o'zbek tili mustaqil davlatimizning Bayrog'i, Gerbi, Madhiyasi qatorida turadigan, qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas davlat ramziga aylandi.

Shuni ta'kidlash kerakki, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi xalqimizning milliy mustaqillikka erishish yo'lidagi muhim qadamlaridan biri bo'lgan edi. Istiqloq yillarida mamlakatimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. O'zbek tilining xalqaro miqyosda obro'si oshdi. “Davlat tili haqida”gi qonun ona tilimizning bor go'zalligi va jozibasini to'la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi. Olimlar va mutaxassislar tomonidan ilm-fan va turli sohalarga oid ensiklopediya va lug'atlar, darslik va o'quv qo'llanmalari chop etildi. Mumtoz adabiyotimiz namunalari, sakson mingdan ziyod so'z va so'z birikmasini, fan, texnika, sanoat, madaniyat va boshqa sohalarga oid



atamalarini, shevalarda qoʻllaniladigan soʻzlarni oʻz ichiga olgan besh jildlik “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” bu borada amalga oshirilgan ishlarning eng muhimlaridandir.

Til nafaqat muammola vositasi – balki xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixidir. Turli xalqlarning tillariga hurmat esa oʻz navbatida oʻzaro tushunishni, muloqotlarga imkoniyat yaratadi. Tillarni saqlanib qolishi uchun esa bu tillarni qoʻllab-quvvatlash zarurdir. Aynan til tufayli insoniyat u yoki bu xalqqa mansubligidan faxrlanib yashaydi. Barcha tillarni tan olish va hurmat qilish tinchlikning birdan bir kafolatidir. Shu sababli ham har bir xalq oʻz tili saqlanib qolishi uchun harakat qiladi.

Lingvist olimlarning fikricha, yana 25 yildan soʻng hozir muomalada boʻlgan tillarning oʻntasidan bittasi saqlanib qolar ekan.

Bugungi kunda dunyoda 6809 ta til mavjud boʻlib, ularning teng yarmi sakkizta davlat – Meksika, Indoneziya, Kamerun, Braziliya, Hindiston, Xitoy, AQSH va Rossiya hissasiga toʻgʻri keladi. Eng koʻp tili mamlakat sifatida Hindiston tan olinadi. Bu mamlakatda aholi 845 til va laxjada soʻzlashadi. Ikkinchi oʻrinda esa 600ta til va shevada soʻzlashuvchi Papua — Yangi Gvineya turadi. Sayyoramizda eng koʻp aholi soʻzlashadigan til sifatida xitoy, ingliz va ispan tillari tan olingan. Birinchi oʻnlikka hindi, bengal, arab, portugal, nemets, rus va yapon tillari ham kiritilgan. Jahon tillarining atigi 4 foizi Yevropa qitʻasiga toʻgʻri kelsada, eng koʻp soʻzlashuvchi tillarning teng yarmi “koʻhna qitʻa”da ekani maʼlum boʻldi. 341 million kishi ingliz tilini ona tili sifatida tan oladi, biroq yana 350 million kishi bu tilni ikkinchi ona tili sifatida koʻrishini maʼlum qilgan. Tahlilchilar xitoy va ingliz tillari foydalanish boʻyicha oʻz mavqeini oshirib borayotganini aytishadi. Vaziyatni oʻrganayotgan kuzatuvchilarning fikricha, foydalanuvchilar soni boʻyicha ayni damda ingliz tili yetakchilik qilayotgan boʻlsa, XXI asr oʻrtalariga borib, xitoy tili asosiy til boʻlib olishi mumkin.

Qachonki bolalar oʻz ona tillarida oʻqishni toʻxtatar ekan, oʻsha til yoʻqolib ketish arafasiga kelib qoladi. Tillarni saqlab qolish bu oʻsha xalqning madaniyati, urf-odati, rasm-rusmlarining saqlanib qolinishini anglatadi. Chunki, xalq taqdiri til taqdiri bilan bevosita bogʻliq. Til har bir millat madaniyatining oʻzagidir. Shu sababli ham tilning saqlanishi xalq taraqqiyoti va kelajagini belgilaydi. Til xalqni birlashtiradi, tarbiyalaydi, oʻqitadi, urf-odat, anʼanalarini saqlaydi. Shunday ekan, ona tilimizning xalqaro miqyosdagi obroʻ-eʼtiborini



yuksaltirishda, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga qo‘shishda har birimiz tilimizga chuqur hurmat bilan yondashimiz kerak.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Shayxislamov N. Ona tili darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirishning asosiy yo‘nalishlari //Science and Education. – 2020. – T. 1. – №. 4.
2. Xakimova I. M., Sadirov A. A. Zamonaviy tilning yoritilishi //Science and Education. – 2020. – T. 1. –№. 4.
3. Ravshanova G. R. Kreativlik–shaxsning yaxlit tarzda rivojlanishi omili //Science and Education. – 2020. – T. 1. – №. 3.

